TA’LMNI UNIVERSAL DIZAYNI TAMOYILLARINING MAZMUNI

Bazarov Sardor - Guliston davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada alohida ta’limga yehtiyoji bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limda universal dizayni tamoyillarining mazmuni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: texnologiya, CAST, mutaxassis, ta’lim, universal dizayn, konsepsiya, ta’lim muhitini yaratish, motivatsiya, kognitiv, motivasion va his-tuyg‘u

Ta’lim sohasidagi “Ta’limning universal dizayni” tushunchasi O‘tgan asrning 90-yillarida AQSH va Yevropa davlatlarida nogiron odamlarni hammabop moddiy muhit bilan ta’minlash uchun jamoatchilik harakati paydo bo‘lgan (binolar, yo‘laklar, yo‘ldan o‘tish joylariva h.k. xususida). Bu nogironlar foydalanishi mumkin bo‘lgan infrastruktura ob’yektlarini yaratishda o‘z aksini topdi (binolardagi panduslar, zinalar uchun tutqichlar, imoratlardagi kengaytirilgan kirish yo‘llari, avtomatik eshiklar, svetoforning audio signallari va h.k.). Biroq oqibatda nafaqat bir guruh odamlar htiyojlarini hisobga oladigan, balki rivojlanish xususiyatlari, yoshi va boshqa

narsalarga bog‘liq bo‘lmagan holda, hamma uchun universal bo‘ladigan dizayn yaratish zarurligi ayon bo‘ldi.

Masalan, binolarga qulay qiya panduslarni o‘rnatish nafaqat nogironlar kolyaskasi yordamida harakatlanadigan odamlar uchun, balki farzandini bolalar kolyaskasida olib ketayotganlar, rolikli jomadonni yoki oziq-ovqat aravachasini olib ketayotganlar uchun ham hammabopligini ta’minlaydi. Shunday qilib, muhitning birgina elementidan hamma foydalanmoqda: alohida guruh odamlarini himoya qiladigan maxsus kirish joylari yo‘q. Universal dizaynning bunday konsepsiyasi hammaboplikni va jamiyatning barcha a’zolari infrastrukturadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi va maxsus shart- sharoitlar zarur bo‘lgan insonlarning, shu bilan birga ularni boshqalardan ajratmagan holda, turmush sifatini yaxshilaydi. Oqibatda bu konsepsiya ta’lim sohasida o‘z aksini topdi.

Amaliy texnologiyalar markazi (CAST) mutaxassislari ta’limning universal dizayni konsepsiyasini ishlab chiqdilar, uni amalga oshirish hamma tomonidan teng darajada o‘zlashtiriladigan ma’lumotni taqdim qilishni, har bir o‘quvchini rag‘batlantiruvchi ta’lim muhitini yaratishni, barcha o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishni va motivatsiyani oshirishni ko‘zda tutadi.


Ta’limning universal dizayni – bu kognitiv, motivasion va his-tuyg‘u sohasida barcha o‘quvchilar uchun hammabop bo‘lgan ta’lim sharoitlarini yaratish

konsepsiyasi va usuli. Bu konsepsiya asosiga miya ishi qonuniyatlari sohasidagi tadqiqotlar olingan. Bizning miyamiz axborotni qayta ishlash, uni eslab qolish, kelgusida chiqarib olish va turli xil faoliyatlarda foydalanishga mas'ul bo'lgan turli

bo'limlardan iborat.

"Ta'limning universal dizayni qo'llanmasi"da (CAST, 2018) ta'lim mexanizmi uchta birlamchi neyrofiziologik tarmoqlar ishi bilan bog'liq (1-jadvalni qarang). Bu tarmoqlarning ishlashi har qanday vazifani bajarishda miya strukturalari va bo'limlarining muvofiqlashtirilgan o'zaro bog'langan faoliyatiga bog'liq.

1-jadval. Ta'lim mexanizmi uchun javob beruvchi neyrofiziologik tarmoqlar.

Маълумотни аниқлаш тармоғи	Стратегик тармоқ	Аффектив тармоқ (ҳис-туйғулар)
		
Кирувчи маълумотни аниқлайди, **НИМА** ўрганилаётганига жавоб беради.	Мавжуд бўлган базавий билимлар ва шахсий тажрибадан фойдаланган ҳолда ўқувчи келиб тушган маълумотга **ҚАНДАЙ** ишлов беришига таъсир қилади.	Келиб тушаётган маълумотга, мотивацияга муносабатни, ўқувчилар **НИМА УЧУН** ўқишни хоҳлашини (хоҳламаслигини) бошқаради.

Bu tarmoqlar ishlashi haqidagi bilimlar asosida ta'lim universal dizaynining uchta tamoyili ishlab chiqilgan: 1) ma'lumotni o'zlashtirish va bilimlarni shakllantirishning turli yo'llari bilan o'quvchilarni ta'minlash uchun ularga o'quv materialini taqdim qilishning bir necha shaklini ko'zda tutish lozim; 2) turli yo'llar va shakllar orqali o'qishdagi yutuqlarni, ta'lim natijalarini namoyish qilish uchun o'quvchilarni imkoniyatlar bilan ta'minlash zarur; 3) o'quvchilarni ta'lim jarayoniga jalb qilish uchun sharoitlar yaratish va bolalarga o'zaro bog'lanishning bir necha variantini taqdim qilish darkor.

Bu tamoyillarni batafsilroq ko'rib chiqamiz

1-tamoyil. Ma'lumotni o'zlashtirish va bilimlarni shakllantirishning turli xil yo'llari bilan ta'minlash uchun o'quvchilarga o'quv materialini taqdim qilishning bir necha shaklini ko'zda tutish lozim.

Yuqorida belgilab o'tilganidek, oxirgi paytlarda olimlar o'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari va ta'limiy ehtiyojlarini hisobga olish zaruratiga diqqat-e'tibor

qaratishmoqda. Ulardan biri – o'quv jarayonida taklif qilingan ma'lumotni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari. Ma'lumotni o'zlashtirish usuli ham ta'limda, ham turmushda qo'llaniluvchi universal o'quv qobiliyati hisoblanadi. Inson ma'lumotni uchta axborot kanali orqali o'zlashtirishi mumkin, deb hisoblanadi: ko'rish

(vizual), eshitish (audial) va harakatlantiruvchi (kinestetik). Lekin bu kanallardan biri har bir insonda odatda ustun bo'ladi, ya'ni ortiq bo'ladi, yetaklovchi hisoblanadi. Ayniqsa, buni ta'lim uchun asos soladigan boshlang'ich maktab pedagoglari bilishi va tushunishi muhim. Ko'rib turganimizdek, o'quvchilarning ta'limiy ehtiyojlari nafaqat ular sog'lomligining qandaydir bir o'ziga xos jihatlari orqali, balki, masalan, har birimizga xos bo'lgan ma'lumotni o'zlashtirish, eslab qolish, fikrlash kabi xususiyatlar orqali ham aniqlanadi. Ma'lumotni o'zlashtirish turlari yoki uslublari modalliklar deb ataladi

O'zlashtirish modalligi – ma'lumotni o'zlashtirish va qayta ishlash, eslab qolish va fikrlash turlari hamda uslublari, bilim orttirish uslublaridir. Ta'lim samarali bo'lishi uchun, o'quv ma'lumoti esa o'quvchilarga ta'sir qilishi uchun uni turli modalliklarda taqdim qilish kerak. Bunday yondashuv barcha toifadagi o'quvchilar tomonidan asosiy ma'lumot o'zlashtirilishini ta'minlash hisobiga ta'lim olish yo'lidagi to'siqlarning kamayishiga olib keladi, demak, ularning ta'lim olish huquqi ham kengayadi. Quyida sinfingizdagi o'quvchilar ega bo'lishi mumkin bo'lgan turli modalliklarni hisobga olgan holda ma'lumot taqdim qilishning har xil yo'llari va xususiyatlari taklif qilingan.

2-tamoyil. Turli yo'llar va shakllar orqali o'qishdagi yutuqlarni, ta'lim natijalarini namoyish qilish uchun o'quvchilarni turli imkoniyatlar bilan ta'minlash zarur.

Ta'lim jarayonida shakllangan bilimlarni va ta'lim natijalarini namoyish qilishda va topshiriqlar bajarishda o'quvchilarni faoliyatning turli xillaridan foydalanish imkoniyati bilan ta'minlash kerak. Shuningdek, o'quvchilarga muvaffaqiyat holatini va o'zini o'zi baholash bo'yicha faoliyatni shakllantirishni ta'minlovchi o'quv yutuqlari monitoringining har xil variantlarini ham ko'zda tutish lozim. O'quvchilarda o'z bilimi uchun javobgarlik rivojlanishi kerak, shuning uchun nafaqat an'anaviy ravishda ishlatiladigan og'zaki va yozma javoblarni, balki shakl va vositalarning eng yuqori keng arsenalini taklif qilgan holda, ular nimalarni o'rganib olganini namoyish qilish imkoniyati bilan ularni ta'minlash kerak. Bular rasmlar, grafik tashkilotchilar, ijodiy xat, dramalashtirish, o'yin, bosh qotirmalar, portfolio va h.k. bo'lishi mumkin. Shu bilan birga malakalarning shakllanganlik darajasini hisobga olish kerak, ularga mos ravishda topshiriqni murakkablashtirish yoki yengillashtirish zarur; o'quvchilar madaniyatining turli-tumanligini ham hisobga olish kerak, bu turli madaniyatlarni aks ettiruvchi materiallar tanlashni bildiradi; bolalar rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish lozim, bunga bog'liq ravishda shunday fikr ifodalash vositalaridan foydalanish taklif qilinadiki, ular yordamida berilgansavolga javob berish yoki topshiriq bajarish ular uchun qulay bo'lsin

3-tamoyil. O'quvchilarni ta'lim jarayoniga sharoitlar yaratish va bolalarga o'zaro bog'lanishning bir necha variantini taqdim qilish darkor.

O‘quvchilarga savodxonlikni o‘rgatish samarali bo‘lishi uchun jalb qilishlik va o‘zaro bog‘lanishning bir necha rejimlari bilan ularni ta’minlash zarur. O‘quvchilarning

yaxshi kayfiyati, ularning qiziqqonligi va his-tuyg‘ulari, yorqin his qilishlari va kechinmalari ta’limning muhim elementi hisoblanadi, bu o‘quvchilarning ta’lim mazmuniga qandaydir bir begona va qiziqarsiz narsadek munosabatda bo‘lishni aks etmay, balki shaxsiy mazmun bilan to‘lgan bo‘lishi kerak. O‘qishga jalb qilinganlik va motivatsiya o‘quvchilarning shaxsiy, o‘ziga xos xususiyatlariga, ularga tegishli bo‘lgan turli madaniyatlarga, mavjud bo‘lgan bilimlarga, har bir o‘quvchining dastlabki tajribasiga va bir qator boshqa omillarga bog‘liq. Shuning uchun o‘qituvchi barcha o‘quvchilarga muvofiq bo‘ladigan turli vositalardan va o‘zaro bog‘lovchi variantlaridan foydalanishi juda muhim.

Ba’zi o‘quvchilarga ta’limning boshlang‘ich bosqichida ancha davomli o‘ziga xos yordam talab qilinsa, boshqa o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan guruhda ishlashni afzal ko‘radilar, shu bilan birga o‘qituvchidan yordam ham oladilar. Guruhlarda ishlash uchun o‘quvchilarni birlashtirish qayd qilingan emas, u o‘zgarib turadigan bo‘lishi kerak. Bu o‘quvchilarga o‘qituvchi yordamidan maqsadga yo‘naltirilgan ravishda foydalanishga, o‘zini o‘zi boshqarish va mustaqillik malakalarini (alohida ishlash shaklidan guruhda ishlash shakliga o‘tganda) rivojlantirishga, darslarda ancha faol ishtirok etishga, juda ko‘p chuqur his-tuyg‘ularni boshdan kechirishga imkon beradi. O‘quvchilarning motivatsiyasi va faolligini oshirish maqsadida har bir o‘quvchi ishtirok etishi uchun qulay muhit yaratish, ish sur’atini o‘zgartirish, tanaffuslar, ijtimoiy muhit tashkil qilish hamda faoliyat turlarini almashtirib turishni; alohida ishlash, kichik guruhlarda ishlash va butun sinf umumiy ishlashini ko‘zda tutgan holda sinf xonasi maydonini to‘g‘ri taqsimlashni ta’minlash muhim. 2-jadvalda TUD tamoyillarining umumlashtirilgan mazmuni ko‘rsatilgan.

2-jadval. Ta’lmni universal dizayni tamoyillarining mazmuni

1-тамойил	2-тамойил	3-тамойил
Тақдим қилиш	**Ютуқларни намойиш қилиш**	**Жалб қилиш**
Маълумотни турли шаклларда тақдим қилиш: визуал (матн, расмлар), эшитиш (мунозаралар, аудио-ёзувлар), кинестетик (расм солиш, хатти-ҳаракатлар) ва бошқалар.	Ўқувчиларга, улар нималарни билиши, қила олишини ифодалаш ва намойиш қилишнинг турли вариантларини танлаш имкониятини бериш: топшириқни ёзма равишда бажариш, оғзаки тақдимот қилиш ёки гуруҳда лойиҳа бажариш.	Мотивацияни ошириш, ўқувчилар қизиқишини рағбатлантириш, диққат-эътиборни жалб қилишнинг турли-туман йўллари: барча ўқувчиларни муҳокамага жалб қилиш, топшириқ танлаш, ўйин, синфда жойини ўзгартириш имконияти.

O‘qituvchi tomonidan o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, TUD tamoyillariga va modallikni hisobga olishga rioya qilish muvaffaqiyatli ta’lim omillari va shart-sharoitlarini aniqlashga, ruhiy funksiyalar va o‘zlashtirish o‘sishining o‘zaro aloqasini ko‘rsatishga, maktab muammolari va qiyinchiliklarini oldindan aytib berish va oldini olishga, o‘quvchiga o‘z vaqtida ruhiy-pedagogik yordam va ko‘mak ko‘rsatishga imkon beradi. Shu sababli pedagog darslarda ishlatadiganqanday usullar va yo‘llar yuqorida aytilganlarni bajarishga imkon berishini tushunishi lozim

Ta’limning universal dizayni – bu bolalarning turli-tumanligini hisobga olgan holda barcha o‘quvchilar uchun ta’limning teng sharoitlarini yaratish usuli. TUDning mavjud uchta asosiy tamoyili – o‘quvchilarga o‘quv materialini taqdim qilishning har xil yo‘llari, o‘quvchilar tomonidan ta’lim natijalarini namoyish qilish va o‘quvchilarni ta’lim jarayoniga jalb qilishlar – o‘quvchilarning kuchli tomonlarini va ta’limiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda o‘qituvchilarga xilma-xil masalalarni yechish imkonini beradi. O‘qituvchilar ta’lim universal dizaynining uchta tamoyiliga rioya qilgan holda, ta’lim jarayonida har qanday to‘siqlarni bartaraf qilish uchun o‘quvchilar o‘qishiga eng ma’qul keladigan strategiyalarni tanlaydi, chunki barcha o‘quvchilarga ta’limning teng imkoniyatlari taqdim qilinishi kerak.

Universal dizayn o‘quvchilarning turli-tumanligini birinchi o‘ringa olib chiqqan holda va o‘quv jarayonini oson hamda o‘zgaruvchan va bolalar ehtiyojlariga mos qilib tuzgan holda o‘quv jarayoni konsepsiyasini o‘zgartiradi.